



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



31 MAY
№28

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
15-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
28-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-15**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
28-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-15**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 28-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУСИҚА ВА ҲАЁТ

1. Nazarov Jasur Rabbimovich	
DARSDAN TASHQARI MUSIQA MASHG'ULOTLARI	7
2. Shaptakov Shuhrat, Badalov Baxtiniso	
BOLALARDA MUSIQIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHDA	
QO'SHIQ KUYLASHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI	9



МУСИҚА ВА ҲАЁТ

DARSDAN TASHQARI MUSIQA MASHG'ULOTLARI

Nazarov Jasur Rabbimovich

Navoiy viloyati Navbahor tumani

11 – maktab musiqa fani o'qituvchisi

+99888 558 9256

Annotatsiya: ushbu maqolada musiqa darslarining darsdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish tartibi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, madaniyat, badiiy, cholg'ular.

Respublikamizda ta'sis etilgan davlat ta'lim standartlarida nazarda tutilgan yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalarini o'stirish bilan birga ularda kuzatuvchanlik, ijodiy fikrlash, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi individual xislatlarni rivojlantirishni ham maqsad qilib qo'yadi.

Davlatimiz tomonidan musiqa madaniyatini ommaviy rivojlantirish maqsadida keyingi yillarda keng ko'lamli tadbirlar ishlab chiqildi va ular muntazam izchillikda hayotga tatbiq etilmoqda. Musiqa madaniyati darsi o'quvchilarda dastlabki musiqa madaniyatini, nafasat tuyg'usini shakllantirishning asosiy omilidir. Bundan tashqari o'quvchilar darsda olgan bilimlarini sinfdan tashqari musiqa va xor to'garaklarida, shuningdek, maktabdan tashqari turli musiqa va raqs to'garaklarida takomillashtirish imkoniga ham egadirlar.

Maktablardagi musiqa va xor to'garaklari hamda madaniyat saroylari, madaniyat uylari va yoshlar ijodkorlik uylari kabi maktabdan tashqari tarbiyaviy-madaniy muassasalarda tashkil etilgan musiqa to'garaklari, o'quvchilar xori, orkestr, raqs va vokal ansambllarining serqirra faoliyatlari bunga misol bo'la oladi. Bu kabi musiqiy to'garak a'zolari hozirgi kunda o'z san'atlarini faqatgina Respublikamizda emas, balki turli chet davlatlarda ham namoyish etib, ko'plab olqishlarga va faxrli o'rinlarga sazovor bo'lmoqdalar. Musiqa to'garaklarida o'quvchilar asosan quyidagi yo'nalishlarda bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin:

- Jamoa bo'lib kuylash
- Turli cholg'u asbobida chalish
- Musiqa tinglash madaniyati
- Ansambl va orkestr jamoasida ijro etish
- Turli raqs usullarini amalda bajarish
- Elektron asboblarda chalish.

Ko'p yillik kuzatishlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, hozirgi yoshlarning milliy cholg'u asboblari bizni o'rganishga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, qashqar rubobi, doira, g'ijjak, nay, dutor kabi asboblarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ancha yuqori desak bo'ladi. Shu sababli maktab va maktabdan tashqari cholg'u to'garaklarining bugungi maqsad va vazifalari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. To'garakni tashkil etishdan asosiy maqsad biror cholg'u asbobini o'rgatish orqali o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularga musiqiy-badiiy tarbiya berishdir. Buning uchun asosan quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

- Cholg'u asbobi, uning tuzilishi hamda tarixi bilan tanishtirish.
- Cholg'u asbobini to'g'ri ushlashni o'rgatish.
- Cholg'u asbobida tovush hosil qilishning o'ziga xos yo'llarini o'rgatish.
- Mezrob yoki kamonchani to'g'ri ushlashni o'rgatish.
- Rubobni sozlashni o'rgatish.
- Musiqa savodi haqida yetarlicha ma'lumot berish.
- Ijroda ishlatiladigan shtrixlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatish.
- Qiziqarli va maqsadli repertuar tanlash, ishlash va hokazo.



To'garak repertuarini tanlashda to'garak rahbari uning bolalarning yoshiga, ijro etish imkoniyatiga, qobiliyatiga mos kelishiga alohida e'tibor berishi zarur. Shuningdek, repertuardagi asarlarning mazmuni milliy, mafkuraviy dunyoqarashimizga mos kelishi hamda ijrochilarning va tinglovchilarning estetik didini to'g'ri yo'nalishda tarbiyalash bilan bir vaqtda yoshlarni ma'naviy kamolotga undashga xizmat qilishi juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti va hukumatimiz tomonidan Respublikamizda musiqa madaniyatini rivojlantirish, uni jahon standartlari darajasiga ko'tarish uchun ko'plab qarorlar qabul qilindi va farmonlar chiqarildi. Bu qaror va farmonlarning ijro etilishi natijasida hozirgi davrda yosh avlodga o'z qobiliyatini, iqtidorini namoyon etish, rivojlantirish va o'z mahoratini o'stirish uchun barcha tashkiliy va moddiy shart-sharoitlar yaratib berildi. Davlatimiz tomonidan muntazam ravishda tashkil etilayotgan "O'zbekiston Vatanim manim", "Nihol", Respublika "Folklor jamoalari ko'riktanlovi" hamda o'quvchi va talaba yoshlar orasida o'tkazilayotgan boshqa ko'plab ko'rik-tanlovlar iqtidorli yoshlarni izlab topib, ularni rag'batlantirishga va xalq orasida musiqa madaniyatining turli qirralarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Maktabdan va sinfdan tashqarida tashkil etilgan yakka tartibdagi musiqa mashg'ulotlari bolalarni musiqaga jalb etishning samarali vositasi sifatida xizmat qilmoqda, ularga ijodiy jarayonda faol qatnashish imkoniyatini bermoqda. Shu bilan birga mashg'ulotlarni yakka tartibda tashkil qilish o'qituvchining o'quvchiga bevosita ta'sir ko'rsatishi, uning fe'l-atvori va ayrim shaxsiy sifatlarini shakllantirish uchun qulay imkon yaratmoqda.

Musiqa asboblarini chalish ijodiy faoliyatga uning barcha xususiyatlariga bog'liqligi sababli ham yakka tartibdagi mashg'ulotlar katta ahamiyatga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov R. Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubi. "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi", – T., 2002 y.
2. Fayzulla M. Karomatli. Ozbek xalqi cholg'u musiqasi. "A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", – T., 2004 y.



BOLALARDA MUSIQIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHIQ KUYLASHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI

Shaptakov Shuhrat, Badalov Baxtiniso

Navoiy viloyati Karmana tumani

12-umumta'lim maktabi

musiqqa fani o'qituvchilari

O'quvchilar tarbiyasida musiqa etakchi o'rin egallaydi. Bu faoliyat turi bolalarga boshqa faoliyat turlariga nisbatan yaqin va tushunarlidir. O'quvchilar qo'shiq kuylashni sevadilar. Kuylash o'quvchilar ijrochiligi faoliyati ichida etakchi faoliyat turi bo'lib, u o'quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Yaxshi qo'shiq bolani quvontiradi, har tomonlama kamol topdiradi va tarbiyalaydi. Cholg'u kuylaridan farqli ularoq qo'shiq kuylash kuchli emotsional ta'sir kuchiga ega. Chunki qo'shiqda matn va musiqa badiiy birligi namoyon bo'ladi. Qo'shiq kuylash bola shaxsi tarbiyasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq inson aqliy kamolotini o'sishiga, dunyoqarashini kengayishiga, atrof-olam haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Qo'shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok etadilar, o'z kechinma va his-tuyg'ularini faolroq ifodalaydilar. Qo'shiqning matni o'quvchilarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Biror bir cholg'uda ijro etilgan kuyga nisbatan ovozda ijro etilgan kuyni bolalar yaxshirok idrok etadilar. Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarda musiqiy qobiliyat rivojlanadi: Musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritm hissi, shuningdek, qo'shiq kuylash musiqiy qobiliyatlardan: metr va ritm hissi, musiqiy eshituvi, lad hissi rivojlanadi. Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnovozlik qilishga intiladi, jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi. Qo'shiq kuylash bola ruhiyatiga ta'sir qilish barobarida, uning jismoniy o'sishi va rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongliligi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarni ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. Qo'shiq kuylash o'quvchilarning nutqini ham rivojlanishiga zamin yaratadi. Qo'shiq so'zlari cho'zib ijro etilganligi tufayli bolalar yangi so'zlarni bug'inlab, xatosiz o'rganadilar. O'qituvchi so'zlarning to'g'ri ijro etilishini tekshirib boradilar. Qo'shiq kuylash jarayoni bolalarni umumiy kayfiyat bilan birlashtiradi, ular hamkorlikda faoliyat bajarishga o'rganadilar. Ular shoshib ketayotgan yoki orqada qolib ketayotgan o'rtoklarini eshitadilar va ularni bir xil sur'atda kuylashga chaqiradilar. Qo'shiq kuylash - musiqiy ta'limining asosiy vositasidir. U boshqa faoliyatlarga nisbatan bolalar uchun juda yaqindir. Qo'shiq ko'ylab, ular musiqani yanada faolroq idrok etadilar. Qo'shiq matni esa mazmunan qo'shiq ko'yini anglashga yordam beradi. Kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy qobiliyatlar eshitish qanday xotira va ritm hissi rivojlanadi. Kuylash bolarning nutqini rivojlantiradi. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarni qo'shiq kuylash jarayonida so'zini kuyga mos qilib kuylash ularni nazorat qilib turadi. Bola ovozni o'ziga xos xususiyatlari nozik, yumshoq mayin bo'ladi. Bola tomog'i undagi bug'in bilan katta kichkina bo'ladi. Shuning uchun ovozi yumshoq va tovush rezanatori orqali kuchaytirib beriladi. Rezonator ikkiga bo'linadi:

1. yuqori bosh rezonator.
2. pastki ko'krak rezanatori.

Ko'krak rezanatori ovozni kuchaytirib beradi. Bosh rezanator esa ovozni jarangli qilib beradi. Kuylash - bu murakkab jarayon bo'lib, tovush hosil qiladi, ya'ni kuylash davrida eshitish va kuylash bir-biri bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bolalar kattalarning nutqi va ohangiga taqlid qiladilar, ovozlari qushlarning,

uy hayvonlarining tovushlarini ifodalaydilar. O'quvchilarda kuylash malakalarini samarali shakllantirishda eng avvalo inson ovoz apparati tuzilishini bilib olishimiz kerak. Og'iz, burun bo'shlig'i, xalqum, traxeya, bronxlar va o'pkalar ovoz hosil qiluvchi a'zolar hisoblanadi. Asosiy ovoz apparati esa hiqildoqda joylashgan. Bolalarni kuylash ijodini rivojlantirish



bo'yicha ish asta-sekin olib boriladi. Shuni inobatga olgan holda maktab ta'lim-tarbiya dasturida har bir sinf diapazoniga mos asarlar berilgan. Shuni aytib o'tish kerakki, yosh bolalarda hali ovoz mushaklari rivojlanmagan bo'ladi. 7 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan vaqt ovoz mushaklarining shakllanish davri hisoblanadi. Unga qadar ovoz mushaklari vazifasini paylar bajaradi. 11-13 yoshga kelib bolalarda hiqildoq mushaklari to'liq shakllandi va 20 yoshga qadar rivojlanib boradi. Shundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, 11-13 yoshda ovoz hosil qilish kattalarnikidan farq qiladi. Buni qo'shiq o'rgatish jarayonida albatta inobatga olishimiz kerak. Bolalar ovozi to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish uchun o'qituvchi ovoz apparati o'zgarish xususiyatlari bilan birga, bolalarning kuylash imkoniyatlarini yaxshi bilish kerak. Chunki bolarning yosh diapazoniga amal qilishlik ovoznig to'g'ri tarbiyalashning, kuylash faoliyatini samarali amalga oshirishda muhim shartlaridan biridir. 1-sinf o'quvchilari ovozi mi 1-sol 1, fa 1- lya 1 diapazonida yaxshi jaranglaydi. Shuning uchun ham dastlab diapazon jihatdan chegaralangan, uncha murakkab bo'lmagan, sodda, ammo harakteri va obraz jihatdan erkin qo'shiqlar kuylashga berilishi lozim. Asta-sekin qo'shiqlar diapazoni kengaytirib boriladi. Har bir qo'shiqda o'quvchilar kuy tovushlari va balandligini ko'rgazmalar va harakatlar orqali bilib boradilar. Bu esa ovoz va eshituv muvozanatini ta'minlaydi va tovush balandligini to'g'ri aniqlashga o'rgatadi. 2-sinf o'quvchilarining ovozlari esa mi 1 - si 1, diapazonida ancha tabiiy jaranglaydi. Shu bilan birga ushbu diapazon hali nozik va kalta ovoz paylari imkoniyati bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda engil, zo'riqmay kuylashga erishish kerak. Asta-sekin kuylash diapazoni kengaytirib boriladi. O'quv yili oxiriga kelib ushbu sinf o'quvchilari diapazoni re 1 -re 1 ga o'tadi. Uchinchi-to'rtinchi o'quv yillarida esa o'quvchilar ovozi do 1- re(mi 2) diapazonida to'liq jaranglaydi. To'rtinchi sinf o'quvchilari ovoz diapazoni do kichik oktava - mi 2 (fa 2) diapazonida to'liq jaranglaydi. Bu davrga kelib ular kuylash malakalariga ega bo'ladilar. 5-6-sinfda 11-13 yoshli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'qituvchi ishida qiyinchiliklar vujudga keladi. Chunki bu davrda hiqildoqning o'sishi natijasida bolalar ovozida «mutatsiya» holati kuzatiladi. Mutatsiya har kimda turlicha kechadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchini yaxshi bilishi va ovozdagi individual o'zgarishlarni kuzatib borishi lozim. Qizlarda ham «mutatsiya» bormi degan savol ilmiy adabiyotlarda u qadar to'liq yoritilmagan. Yaxshi ma'lumki, ovoz o'zgarishi fiziologik jarayon bo'lib, u bevosita butun organizm o'zgarishi bilan bog'liq. Qizlarda ham ovoz paylarining o'sishi kuzatiladi. 13-14 yoshga kelib kuylashdan so'ng qizlar ovoz paylarida ham qizarish va ovoznig bir muncha charchash holati kuzatiladi. Lekin qizlardagi mutatsiya jarayoni o'g'il bolalardagidek sezilarli darajada o'tmaydi. Bolalar ovozi muxofaza qilishda kuylash malakalari ustida ish to'g'ri olib borilishi kerak. Jamoa bo'lib kuylash malakalariga: Kuylashdagi holat (turib, o'tirib kuylash)

- Nafas hosil qilish
- Tovush hosil qilish
- Soz Talaffuz Ansambl

Qo'shiq aytish holati Bog'cha bolalarning kuylash jarayonida ularni to'g'ri o'tirish, qomatlarini, boshlarini tik to'tishlarini, og'iz ochishlarini to'g'ri o'rganishlarini nazorat qilib turish. Stulga to'g'ri o'tirish, lekin, 3-4 yoshli bola stulga suyanib qo'lini tizziga qo'yib o'tirishi mumkin, og'izlarini vertikal ochishlari kerak. Maktabda esa o'qituvchi birinchi darsdan boshlanoq, qo'shiq aytish holati-partada o'tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo'l va oyoqlarni qandayto'tish lozimligi haqida bolalarga tushuncha berib boradi. Kuylaganda gavgani qiyshaytirmasdan to'g'ri to'tish, elkalarni engil kerib, iyakni ortiqcha ko'tarmasdan, bo'yinni va boshni to'g'ri ushlash, qo'llarni erkin holda pastga tushirish yoki kaftlarni tizzalar ustiga engil qo'yib, engashmasdan o'tirish va oyoqlarni elka kengligida erkin qo'yish kabi holatlari ustida ish olib boradi. Bu ish har bir darsda qayta-qayta takrorlanadi va butun yil davomida nazorat qilib borish bilan bolalarda ko'nikma hosil etiladi. Kuylashdan avval musiqiy jumlar orasida nafas olishga bolalarni o'rgatadi. Bu jarayon o'quvchilarning musiqiy saviyasini oshirishdagi etakchi omillardandir.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(15-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000